



Zumrad Ilxamova,
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti
Strategik tahlil va prognozlashtirish bo‘limi
kichik ilmiy xodimi
e-mail: zumrad.i@mail.ru

KANADA XOTIN-QIZLAR QADRIYATLARINING SHAKLLANISHI

Annotatsiya. Maqolada xotin-qizlarning qadriyatlari Kanada davlati misolida o‘rganildi. Kanadada gender tengligining ta‘minlanishi, xotin-qizlarning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotdagi ishtiroki hamda tadbirkorligining qo‘llab-quvvatlanishi yoritib o‘tilgan. Kanadada muvaffaqiyatli dasturlar tajribasini xotin-qizlar konferensiyalari orqali tarqatish, tadbirkor xotin-qizlar uchun moliya, biznesni rivojlantirish, ularning iqtisodiy mustaqilligi, farovonligi, ularga nisbatan zo‘ravonlikka barham berishi hamda xotin-qizlarning huquqli shaxs sifatida huquqlari mustahkamlanishi o‘rganildi.

Аннотация. В статье рассматриваются ценности женщин зарубежных стран на примере Канады. Обеспечение гендерного равенства в Канаде, участие женщин в экономической, политической, социальной и культурной жизни, поддержка женского предпринимательства. Продуктивные программы государственной поддержки женского предпринимательства, распространение опыта успешных программ через женские конференции, финансирование женщин-предпринимателей, развитие бизнеса, их экономическая независимость, благополучие, устранение насилия в отношении них, укрепление юридических прав женщин.

Annotation. The article deals with the values of women in foreign countries on the example of Canada. Ensuring gender equality in Canada, women’s participation in economic, political, social and cultural life, supporting women’s entrepreneurship. Productive programs of state support for women’s entrepreneurship, dissemination of the experience of successful programs through women’s conferences, financing of women entrepreneurs, business development, their economic independence, well-being, elimination of violence against them, strengthening the legal rights of women.

Tayanch so‘zlar: xotin-qizlar, jamiyat, huquqlar, ijtimoiy-iqtisodiy siyosat, gender tenglik, tadbirkorlik, ta‘lim.

Ключевые слова: женщины, общество, права, социально-экономическая, политика, гендерное равенство, предпринимательство, образование.

Keywords: women, society, rights, socio-economic politics, gender equality, entrepreneurship, education.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ro'y bermoqda, hayot uchun prinsipial jihatdan yangi iqtisodiy sharoitlarning yaratilishi, yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi bilan tavsiflanadi. Jamiyatning tuzilishi va uning aksariyat a'zolarining ijtimoiy mavqeyi sifat jihatidan o'zgardi. Ijtimoiy tuzilmaning tabaqalanishi bilan turli ijtimoiy guruhlar va umuman, jamiyatning qiymat o'zgarishi ham yuz berdi. Bularning barchasi ijtimoiy qadriyatlarning o'zgarishiga, yangi shaxsiy qadriyat yo'nalishlarining shakllanishiga ta'sir qildi, bu xotin-qizlarning qarashlari tizimida ko'proq namoyon bo'ldi. So'nggi o'n yilliklarda zamonaviy jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy roli tubdan o'zgarib bormoqda, tabiiyki, zaif jins vakillarining maqomi o'zgarib bormoqda.

Asosiy qism. Kanadada xotin-qizlar mamlakatdagi iqtisodiy va ijtimoiy resurslarning muhim qismidir. Xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi tenglik Kanadaning inson huquqlariga bo'lgan yondashuvining ajralmas qismidir. Kanadada xotin-qizlar ishchi kuchining deyarli yarmini tashkil qiladi, ular mamlakat iqtisodiyotiga 18 milliard dollardan ortiq hissa qo'shgan bo'lib, 800 000 kompaniyaga egalik qiladi. Kanada xotin-qizlarining mamlakat byudjeti daromadlariga to'laydigan soliqlar ulushi 50 foizni tashkil qiladi. Advokatlar, menejerlar va buxgalterlarning 50 foizini xotin-qizlar tashkil qiladi¹. Universitetlarda erkaklarga qaraganda ikki baravar ko'p ayol talaba bor.

Kanada dunyodagi sanoatlashgan mamlakatlar orasida aholi jonboshiga tadbirkor xotin-qizlar soni bo'yicha birinchi o'rinda turadi. Kanada hukumati gender tengligini demokratik qonun ustuvorligi tamoyillaridan biri sifatida rasman tan olgan, ushbu yo'nalishda ko'p qirrali va ko'pincha innovatsion qadamlar qo'yilmoqda: xotin-qizlar manfaatlarini ilgari surish uchun puxta va samarali mexanizm yaratildi, xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurash bo'yicha keng ko'lamli dasturlar amalga oshirilmoqda, gender tengligini ta'minlash bo'yicha Federal reja qabul qilindi.

Kanada hukumati doimiy ravishda xotin-qizlarni Vazirlar Mahkamasi tarkibiga kiritgan va natijada ular asosiy vazirlik lavozimlarini egallashgan.

1993-yilda Kim Kempbell Kanada Bosh vaziri bo'lgan. 1999-yilda birinchi marta ayol Oliy sud raisi lavozimini egallagan. Bularning barchasi BMTning xotin-qizlar maqomi bo'yicha komissiyasida, BMT

Kanadada xotin-qizlar ishchi kuchining deyarli yarmini tashkil qiladi, ular mamlakat iqtisodiyotiga 18 milliard dollardan ortiq hissa qo'shgan bo'lib, 800 000 kompaniyaga egalik qiladi. Kanada xotin-qizlarining mamlakat byudjeti daromadlariga to'laydigan soliqlar ulushi 50 foizni tashkil qiladi.

¹ (1976-1985) конституциявий ҳуқуқ ва эркинликлар хартиясида уларнинг тенглиги мустаҳкамланган.

***Kanada
mahalliy xalqlar
muammolarini
o'z ichiga olgan
ko'p millatli davlat
muammolarini
hal etishda ham,
gender tengligiga
erishishda
ham dunyoda
muvaffaqiyat
qozongan davlat
obro'siga munosib
ravishda sazovor
bo'ldi. Shuning
uchun ham
bu mamlakat
tajribasi diqqatga
sazovordir.***

Inson huquqlari bo'yicha komissiyasida, yig'ilishlarda bir qator foydali va konstruktiv tashabbuslar bilan chiqqan Kanadaning jahon hamjamiyati tomonidan xotin-qizlar huquqlari sohasida tan olingan yetakchi davlatga aylanishida muhim rol o'ynaydi.

Kanada mahalliy xalqlar muammolarini o'z ichiga olgan ko'p millatli davlat muammolarini hal etishda ham, gender tengligiga erishishda ham dunyoda muvaffaqiyat qozongan davlat obro'siga munosib ravishda sazovor bo'ldi. Shuning uchun ham bu mamlakat tajribasi diqqatga sazovordir.

Kanadada gender tengligi xotin-qizlar va erkaklar nafaqat teng huquqlarga, balki ushbu huquqlarni amalga oshirish uchun teng shart-sharoitlarga, imkoniyatlarga ega bo'lishlari kerakligini tan oladi, bu esa o'z navbatida, inson huquqlarini to'liq ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoitlarni yaratishga va ularning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hamda madaniy taraqqiyotga hissa qo'shishlariga olib keladi. Kanada federal hukumati federal idoralarga siyosat, chora-tadbirlar va qonunchilikning gender tahlilini o'tkazishni topshirdi.

Kanadada Xotin-qizlar ishlari bo'yicha idora vazirlik maqomi bilan shakllantirilgan. U gender tengligini ta'minlash hamda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotida to'liq ishtirokini ta'minlashga ko'maklashib, quyidagi yo'nalishlarda ish olib boradi: xotin-qizlarning iqtisodiy mustaqilligi va ularning farovonligini oshirish, xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikka tizimli barham berish, xotin-qizlarning huquqli shaxs sifatida huquqlarini mustahkamlash.

Kanada vazirlik va idoralari (mehnat, sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot, bandlik va immigratsiya, qishloq xo'jaligi, adliya, xalqaro aloqalar va tashqi savdo vazirliklari, xalqaro taraqqiyot agentligi va boshqalar) o'z tarkibida maxsus bo'linmalarga ega bo'lib, ular xotin-qizlar manfaatlari bilan bog'liq bir qator muammolarni hal qilishadi.

Xotin-qizlar ishlari bo'yicha idora hukumat doirasida mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, qonunchilik siyosati va turli dasturlarning xotin-qizlarga ta'sirini tizimli monitoring qiladi, yangi va yangilangan dasturlarni, shuningdek, xotin-qizlar nuqtayi nazaridan taklif qilingan qonunchilik tashabbuslarini ko'rib chiqadi. U boshqa federal idoralarga muayyan siyosatlarni o'zgartirish bo'yicha takliflar kiritadi, shuningdek, xotin-qizlarning dolzarb muammolarini hal qilishga qaratilgan dasturlarni tavsiya qiladi.

Kanadaning barcha mintaqaviy hukumatlari o'z darajasida federal modelga muvofiq xotin-qizlar manfaatlarini birlashtirish mexanizmini yaratdilar. Shu bilan birga, mintaqaviy hokimiyatlarning avtonomiyasi

muhim ahamiyatga ega. Kanada xotin-qizlar ishlari bo'limi faoliyatining asosiy elementi xotin-qizlar nodavlat tashkilotlari bilan doimiy aloqalarni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashdir. Bu mamlakatdagi turli xotin-qizlar va boshqa jamoat tashkilotlari vakillari bilan muntazam uchrashuvlar o'tkazib kelayotgan bo'limning doimiy vazifalaridan biridir. NNT vakillari Vazirlar Mahkamasining boshqa a'zolari bilan uchrashar ekan, xotin-qizlarning maqomi uchun mas'ul bo'lgan vazir bunday ijtimoiy guruhlar manfaatlari uchun o'ziga xos markaz bo'lib xizmat qiladi.

Xotin-qizlar ishlari bo'yicha idora Kanada xotin-qizlar siyosatini tahlil qilish hamda ishlab chiqishda viloyat va hududiy hukumatlar hamda xalqaro tashkilotlar bilan muvofiqlashadi. Shuningdek, u akademik va boshqa manfaatdor tomonlar bilan maslahatlashadi. Muammoni yaxshiroq tushunish uchun ilmiy tadqiqotlar va ekspert baholashlar o'tkazishadi. Kanada jamoatchiligini xotin-qizlarga nisbatan hukumat siyosati va harakatlar ustuvorligi haqida xabardor qiladi.

Xotin-qizlar ishlari bo'yicha idora doirasida Strategik tadqiqotlar jamg'armasi faoliyat yuritadi. U Kanadadagi xotin-qizlarga ta'sir ko'rsatadigan davlat siyosati masalalari bo'yicha genderni mos siyosat tadqiqotlarini qo'llab-quvvatlaydi. Tadqiqot direksiyasi xotin-qizlarni qiziqtirgan masalalar bo'yicha treninglar (o'quv seminarlar) tashkil etadi va gender tadqiqotlari amaliyotini rag'batlantiradi.

Xotin-qizlar va tadbirkorlik. Kanadada xotin-qizlar biznesi juda tez rivojlanmoqda. Bunda davlat tomonidan olib borilayotgan ijobiy siyosatning xizmatlari katta.

1988-yil avgust oyidayoq federal hukumat Kanadada biznes muhitini yaxshilashga qaratilgan "Tadbirkorlik bo'yicha milliy siyosat"ni e'lon qildi. Unda xotin-qizlar biznesini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berildi. Keyinchalik keyingi bir necha yil ichida Kanadada xotin-qizlarning kichik biznesini qo'llab-quvvatlash bo'yicha bir qator dasturlar amalga oshirildi va o'z faoliyatini davom ettirmoqda, bu, shubhasiz, xotin-qizlarning biznes olamiga kirishiga yordam beradi².

Xotin-qizlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashning davlat tizimi dunyoda ancha keng tarqaldi. Xotin-qizlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashning davlat tizimi boshqa mamlakatlarda ham uchratish mumkin bo'lgan bir qancha asosiy yo'nalishlardan iborat.

Kanadada muvaffaqiyatli dasturlar tajribasini xotin-qizlar konferensiyalari orqali tarqatish, tadbirkor xotin-qizlar uchun moliya,

1988-yil avgust oyidayoq federal hukumat Kanadada biznes muhitini yaxshilashga qaratilgan "Tadbirkorlik bo'yicha milliy siyosat"ni e'lon qildi. Unda xotin-qizlar biznesini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berildi. Keyinchalik keyingi bir necha yil ichida Kanadada xotin-qizlarning kichik biznesini qo'llab-quvvatlash bo'yicha bir qator dasturlar amalga oshirildi va o'z faoliyatini davom ettirmoqda, bu, shubhasiz, xotin-qizlarning biznes olamiga kirishiga yordam beradi.

² Шведова Н.А. Опыт Канады // Предпринимательство и женщины коренных малочисленных народов Севера через призму гендерного образования. — Москва, 2007.

***Kanada
Mustaqil Biznes
Federatsiyasi
tomonidan
o'tkazilgan
tadqiqotga ko'ra,
xususiy biznesga
ega bo'lgan xotin-
qizlar erkaklarga
qaraganda
moliyaviy
institutlardan
kredit olishda
rad javobini
olish ehtimoli
ko'proq. Xuddi
shu xususiyatlarga
ega bo'lgan
moliyalashtirishni
ta'minlashda, ayol
tadbirkorlar erkak
hamkasblariga
qaraganda
kreditlar uchun
yuqori foiz
stavkalarini
to'laydilar.***

biznesni rivojlantirish, narxni qanday to'g'ri aniqlash bo'yicha risolalar nashr etish amaliyoti qo'llanadi.

Xotin-qizlarning tadbirkorlik loyihalarini qo'llab-quvvatlash, hududlarda hamda xotin-qizlar azaldan ishlashga odatlangan sohalarida: xizmat ko'rsatish, tibbiyot, ta'lim sohalarida ham yaqqol ko'zga tashlanadi.

Qishloqlarda tadbirkorlar bilan maslahatchilarning uchrashuvlari muntazam o'tkazilib, yangi usul va texnologiyalar muhokama qilinmoqda.

Kanada Mustaqil Biznes Federatsiyasi tomonidan o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, xususiy biznesga ega bo'lgan xotin-qizlar erkaklarga qaraganda moliyaviy institutlardan kredit olishda rad javobini olish ehtimoli ko'proq. Xuddi shu xususiyatlarga ega bo'lgan moliyalashtirishni ta'minlashda, ayol tadbirkorlar erkak hamkasblariga qaraganda kreditlar uchun yuqori foiz stavkalarini to'laydilar. Biznes olamidagi ayrim xotin-qizlar va erkaklar kredit berishda gender kamsitish borligini tan olmaydilar, ammo tizimli tahlillar uning mavjudligini ko'rsatadi.

Biroq gender tengligi tamoyillariga rioya qilish va ko'p millatli madaniy muhitni qo'llab-quvvatlash borasidagi davlat siyosatida amalga oshirilayotgan siyosiy irodaning mavjudligi tufayli mamlakatda bu borada ijobiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Moliyaviy institutlar federal hukumat tomonidan tartibga solinadi, kredit olishda gender kamsitishlarini bartaraf etishga sheriklik uchun imkoniyatlar yaratadi.

Xususan, xotin-qizlar uchun ikkita yirik tashabbus ishlab chiqilgan.

Ulardan birinchisi "Muvaffaqiyatga yo'l" nomli biznes-rejalashtirish bo'yicha qo'llanma bo'lib, o'z biznesini ochishga qiziqqan xotin-qizlar uchun foydali va konstruktiv ma'lumotlar beradi.

Ikkinchi tashabbus – "Xotin-qizlar kelajak sari" mavzusida amaliy mashg'ulot bo'lgan o'quv dasturi. Ushbu faoliyat Hindiston va Shimoliy ishlar departamenti tomonidan moliyalashtirildi va Kanada Ma'muriy Xizmatlar Tashkilotining Xizmatlar Ofisi orqali amalga oshirilmoqda.

Ushbu dasturning maqsadi xotin-qizlarga quyidagi masalalar bo'yicha umumiy tushunchaga ega bo'lish imkonini berishdir:

- tadbirkorlik faoliyati;
- mulkni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- aniq xo'jalik va moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish;
- xodimlarni rejalashtirish;
- tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishga tayyorlash.

Kanada parlamentida xotin-qizlar. Kanadada hukumatdagi eng yuqori lavozimlarni egallagan siyosatchi xotin-qizlar soni ortib kelmoqda. Shuningdek, e'tirof etilishicha, aynan xotin-qizlar mahalliy organlar va

mahalliy hamjamiyatlarda, shuningdek, norasmiy tashkilotlarda yetakchi rol o'ynaydi.

Kanadada xotin-qizlar saylangan lavozimlarga ko'tarilishi va ularning mamlakat siyosiy hayotidagi ishtirokini faollashtirish uchun maxsus xotin-qizlar guruhleri va tashkilotlari tashkil etilmoqda. Xotin-qizlar harakatida bunday o'ziga xos siyosiy tashkilotlarning paydo bo'lishi ko'plab xotin-qizlar jamoat birlashmalari ixtisoslashuvining umumiy tendensiyasiga to'g'ri keldi, ular o'z faoliyatini ma'lum masalalarga jamlay boshladilar.

Siyosiy partiyalar ham xotin-qizlarni siyosatga jalb etish choralari ko'rdi, kunning yangi voqeiklariga moslashishga, saylovchilar orasida sezilarli qo'llab-quvvatlashni yo'qotmaslikka harakat qildi. Eski va yangi xotin-qizlar tashkilotlari siyosiy muammolar, xotin-qizlarning siyosatdagi o'rni haqida maxsus seminarlar, konferensiyalar, simpoziumlar o'tkazmoqda³.

Turli darajadagi saylovoldi tashviqotlarida ishtirok etish uchun ariza bergan xotin-qizlarni o'qitish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda, maxsus adabiyotlar chop etilib, tarqatilmoqda. Ko'pgina xotin-qizlar guruhleri yakka holda faoliyat yuritisa-da, xotin-qizlar harakati orasida ijtimoiy o'zgarishlar va siyosiy hokimiyat o'rtasidagi yaqin aloqani tushunish kuchayib bormoqda.

Siyosiy xotin-qizlar tashkilotlari xotin-qizlarning mamlakat siyosiy jarayoniga integratsiyalashuvi yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etishni maqsad qilgan. Mamlakatda xotin-qizlarning turli nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat yuritadi, ular orasida Xotin-qizlar maqomi bo'yicha Milliy harakat qo'mitasi (The National Action Committee on the Status of Women – NAC), Kanada xotin-qizlarning tinchlik uchun ovozi ("Canadian Voice of Women for Peace"), Kanada xotin-qizlari siyosiy vakillik uchun (Canadian Women for Political Representation), Kanada xotin-qizlari federatsiyasi universitet ma'lumoti bilan (The Canadian Federation of University Women) mavjud.

Xotin-qizlar maqomi bo'yicha Milliy harakat qo'mitasi 1972-yilda tashkil etilgan milliy jamoat tashkiloti bo'lib, u 600 dan ortiq xotin-qizlar guruhleri, tashkilotlari va birlashmalarini o'zida jamlagan, ehtimol Kanadadagi eng yirik va eng nufuzli xotin-qizlar tashkiloti hisoblanadi.

Xotin-qizlar tashkilotlari turli darajadagi hukumatlarning xotin-qizlarning mavqeyiga doir tasdiqlangan dasturlarni amalga oshirishdagi faoliyatini eng ehtiyotkorlik bilan nazorat qiladi. Ular Vazirlar Mahkamasi,

Kanadada xotin-qizlar saylangan lavozimlarga ko'tarilishi va ularning mamlakat siyosiy hayotidagi ishtirokini faollashtirish uchun maxsus xotin-qizlar guruhleri va tashkilotlari tashkil etilmoqda.

³ Исраелян Е.В. Канадская модель общественно-политической интеграции женщин // Гендерная реконструкция политических систем. – Санкт-Петербург, 2004.

parlament qo'mitalari bilan doimiy aloqada bo'lishadi (masalan, moliya vaziri federal byudjetni tayyorlash jarayonida xotin-qizlar, shuningdek, boshqa jamoat tashkilotlari pozitsiyasi bilan tanishishga intiladi), hukumat qarori va taklif qilingan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgunga qadar).

Xulosa. Bugungi kunda Kanadaning xotin-qizlari nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-siyosiy institutlarni ham o'zlashtirmoqda. Aynan xotin-qizlar harakatining faoliyati mamlakatda xotin-qizlarning mavqeyini oshirishning milliy mexanizmini yaratishga turtki bo'ldi, uning mavjudligining o'zi ham mamlakatda sodir bo'lgan o'zgarishlarning ramzi hisoblanadi.

Kanada milliy va xalqaro harakatlar orqali gender tengligini ta'minlash hamda xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilishga intiladi.

Kanadada gender tengligiga erishishning ushbu maqsadi xotin-qizlarning tengligini ta'minlash, inson huquqlarini himoya qilish va jamiyatning demokratik rivojlanishi hamda barqaror rivojlanish sohasidagi taraqqiyotning muhim sharti ekanligi, xotin-qizlarning teng huquqlik imkoniyatiga ega bo'lishi asosida hal qilinadi, qaror qabul qilishda va taraqqiyot samarasidan teng ravishda bahramand bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Шведова Н.А. Гендерный аспект политической жизни в США и Канаде // *США и Канада: Экономика, политика, культура*. 2004. № 3.
2. Шведова Н.А. Опыт Канады // *Предпринимательство и женщины коренных малочисленных народов Севера через призму гендерного образования*. – Москва, 2007.
3. Израелян Е.В. Канадская модель общественно-политической интеграции женщин // *Гендерная реконструкция политических систем*. – Санкт-Петербург, 2004.
4. Canadian International Development Agency. *Guide to gender sensitive indicators*. Ottawa, 1997.
5. <http://www.parl.gc.ca/information/library/PRBpubs/prb>
6. <http://www.equalvoice.ca/index.php>
7. *Women in Parliament: Beyond Numbers: A Revised Edition / International IDEA*. Stockholm, 2005.
– URL: <http://www.idea.inf>